


MILLIY MUZEYGA TAMAL TOSHI QOʻYILDI, YANGI AEROPORT ESA MUHIM TRANSPORT XABIGA AYLANADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 27-avgust kuni Toshkent shahrida Oʻzbekiston Milliy muzeyining qurilishiga start berdi hamda “Toshkent — Sharqiy” aerodromi negizida barpo etilgan yangi aeroportda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.



Dastlab Oʻzbekiston Milliy muzeyi qurilishiga tamal toshi qoʻyildi.

Davlatimiz mustaqilligi milliy oʻzligimizni yuzaga chiqarib, ezgu saʼy-harakatlarga asos boʻlib kelmoqda. Har yilgidek, bu galgi istiqlol bayrami ham yaxshi yangiliklarga vasila boʻlmoqda. Shunday tarixiy voqealardan biri yangi Milliy muzeyga asos solinishidir.

Tashrif chogʻida davlatimiz rahbariga ushbu inshoot loyihasi va xususiyatlari, qurilish bosqichlari haqida axborot berildi.

Muzey Madaniyat va sanʼatni rivojlantirish jamgʻarmasi shafeligida

Yaponiyaning “Tadao Ando Architect & Associates” arxitektura byurosi hamda Germaniyaning “Atelier Bruckner” kompaniyasi tomonidan loyihalashtirilgan. Uning tashqi qiyofasi aylara, toʻrt burchak va uch burchak shaklida boʻlib, Sharq va Gʻarb madaniyatini oʻzida uygʻunlashtiradi. Majmua uch qavatli muzey, qavatli yertoʻla hamda yordamchi binolardan iborat boʻladi. Xitoyning “CSECE International Construction” kompaniyasi tomonidan quriladi.

Poytaxtimizda ushbu muzey qurilishiga bagʻishlangan marosim

boʻlib oʻtdi. Shu munosabat bilan

Oʻzbekiston Milliy bogʻi yaqinidagi maydonga madaniyat va sanʼat namoyandalari, olimlar va adiblar, nuroniyalar, jamoatchilik vakillari yigʻildi.

— Hamma sohada rivojlanish bilan birga qadriyatlarimizni tiklashga harakat qilyapmiz. Oʻzbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy majmuasi, Olimpiya shaharchasi kabi ulkan inshootlar quryapmiz. Buning zamiridagi asosiy maqsad shuki, bu binolar xalqimizga mulk boʻlib qolishi kerak. Mana endi yana bir tarixiy majmua

— Oʻzbekiston Milliy muzeyi qurilishini boshlayapmiz. Bu muzey uch ming yillik boy tariximizni odamlarga, dunyo hamjamiyatiga va kelajak avlodga yetkazadigan ilm-maʼrifat va madaniyat maskani boʻladi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Qayd etilganidek, hozir birgina Toshkentdagi 30 ta muzeyda 1 milliondan ziyod eksponatlar bor. Ularning 100 mingi Davlat sanʼat muzeyida boʻlib, shundan bor-yoʻqi 2 ming 400 tasi namoyishga qoʻyilgan. Koʻrgazma zallari yetarli boʻlmagani sababli 97 mingdan ziyodi omborda saqlanmoqda.

— Markaziy Osiyo, Xitoy, Yaponiya, Hindiston va Yevropa davlatlari madaniyatini oʻzida aks ettirgan bu noyob sanʼat asarlari nafaqat bizning, balki butun insoniyatning beqiyos boyligi. Ularni asrab-avaylab, kelgusi avlodlar uchun beshikast yetkazish, dunyo ommasiga namoyish qilish orqali mamlakatimizning boy tarixi va madaniyatini tarannum etish barchamizning muqaddas burchimiz, — deya taʼkidladi Prezident.

Bunday mahobatli muzey yurtimiz tarixida ilk bor barpo etilmoqda. Uning umumiy maydoni 40 ming kvadrat metr boʻladi. Koʻrgazma zallari, kutubxona, restavratsiya laboratoriyalari va eksponatlarni saqlash xonalarida eng zamonaviy qulayliklar tashkil etiladi.

Bu orqali hozirda poytaxtimizning turli muzeylarida tarqoq joylashgan tarixiy ashyolar, koʻhna va zamonaviy sanʼat asarlarini yaxlit koʻrish mumkin boʻladi. Umuman, muzeyda bir vaqtning oʻzida 10 mingga yaqin eksponatlarni namoyish qilish imkoniyati yaratiladi.

Bundan tashqari, 4 ming kvadrat metr maydonda konferensiya zallari, auditoriya va restoranlar, bolalar maydonchalari joylashadi.

Muzey ishga tushgach atrofidagi Abulqosim madrasasi, Xalqlar doʻstligi

saroyi va Oʻzbekiston Milliy bogʻi bilan bir joyda yaxlit meʼmoriy kompozitsiyaga aylanadi. Yurtdoshlarimiz va xorijiy sayyohlar tashrif buyuradigan tematik turizm maskani boʻladi.

Kelajakda ushbu muzey dunyoga mashhur Luvr, Metropoliten va Britaniya muzeylari bilan yaqindan hamkorlik oʻrnatadi, noyob eksponatlar olib kelinadi va koʻrgazmalar tashkil qilinadi.

— Ishonchim komil, yangi barpo etiladigan majmua mamlakatimizning jahon tarixi va taraqqiyotida tutgan oʻrnini yanada yorqinroq koʻrsatadi. Bir yil emas, oʻn yil emas, koʻp yillar davomida xalqimizga xizmat qiladi, — dedi Shavkat Mirziyoyev soʻzining yakunida.

Shundan soʻng davlatimiz rahbari majmua poydevoriga kapsula qoʻyib, qurilishni boshlab berdi.

Kunning ikkinchi yarmida Prezident Shavkat Mirziyoyev “Toshkent — Sharqiy” aerodromi negizida barpo etilgan yangi aeroportni borib koʻrdi.

Mamlakatimiz taraqqiy etib, xalqaro nufuzi oshgan sari dunyo bilan aloqalar faollashib bormoqda. Shu bois transport infratuzilmasining barcha yoʻnalishlarini mutanosib rivojlantirish choralari koʻrilmoqda.

Ana shunday strategik loyihalardan biri — “Toshkent — Sharqiy” aerodromi negizidagi biznes aviatsiyasi majmuasi. Uning qurilishi 2017-yilda boshlangan edi. Pandemiya va undan keyingi qiyinchiliklardan oʻtib, nihoyat ulkan inshoot qurib bitkazildi.

Aeroportning umumiy maydoni 561 gektardan iborat. 4 kilometr uzunlikdagi uchish-qoʻnish yoʻlagi va 3 ta harakatlantirish yoʻli yangilanib, eng ogʻir samolyotlarni ham qabul qilish quvvatiga ega boʻldi. 20 ta “havo kemasi”ga moʻljallangan perron barpo etildi. “Boeing 787”, “A 320” kabi samolyotlar, biznes-jetlar hamda vertolyotlar uchun angarlar qurildi.

Bu ularning qishda iliq, yozda salqin saqlanishi va xavfsizligini taʼminlaydi.

Aeroportda VIP va CIP terminallar bunyod etilgan. Oliy martabali mehmonlar zalida rasmiy kutib olish, muzokaralar va brifing oʻtkazish uchun barcha sharoit yaratilgan. Soatiga 100 nafar yoʻlovchini qabul qilish quvvatiga ega CIP terminalida doʻkon va ovqatlanish joylari boʻladi.

Muhimi, aeroport ICAO III-A toifasidagi ilgʻor radiotexnika va meteorologiya uskunalari bilan jihozlanadi. Bu noqulay ob-havo sharoitlarida ham uchish va qoʻnish imkonini beradi.

Yangi aeroport qulay joylashuvi tufayli poytaxt va Yangi Toshkent shahri uchun muhim transport xabiga aylanadi. Xalqaro tashriflar va ishbilarmonlik safarlarini amalga oshirish imkoniyatlari kengayadi, xorijiy investorlar uchun sharoitlar yaxshilanadi. Natijada iqtisodiy aloqalar va xizmat koʻrsatish sohasi yanada rivojlanib, ish oʻrinlari yaratiladi.

Davlatimiz rahbari shu yerda jamoat faollari, nuroniyalar bilan suhbatlashdi.

— Koʻp yil tayyorgarlik qilib, mana shunday yangi aeroport quridik. Bu ham davlatchilikning yana bir zamini. Bu yerda yurtimizga keladigan mehmonlar va samolyotlarga yuqori darajada xizmat koʻrsatiladi. Natijada Toshkent xalqaro aeroportiga yuklama yengillashadi. Xudo xohlasa, u aeroport uchun ham boshqa joyda ulkan majmua qurishni rejalashtirganmiz. Umuman, hamma hududlarimizda katta-katta loyihalarni boshlaganmiz. Ilohim, tinchligimizga koʻz tegmasin, yangi inshootlar, farovonlik xalqimizga buyursin, — dedi Prezident.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Abdulaziz RUSTAMOV,
OʻZA muxbirlari.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

HAR BIR YUTUQ VA NATIJA, AVVALO, INSON QADRINI ULUGʻLASHGA XIZMAT QILMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyevning farmonlariga muvofiq Oʻzbekiston Respublikasi mustaqilligining oʻttiz toʻrt yilligi munosabati bilan turli sohalar vakillari faxriy unvonlar, orden va medallar bilan mukofotlangan edi.

Toshkent shahrida 27-avgust kuni ushbu mukofotlarni topshirish marosimi boʻldi.

Davlatimiz rahbari barchani, avvalo, Mustaqillik bayrami bilan tabrikhladi. Mamlakatimizda erishilayotgan natijalarning asosi, saʼy-harakatlarning mohiyati haqida alohida toʻxtaldi.

— Yangi Oʻzbekistonda ortga qaytmas tus olgan islohotlarimiz qanday ulkan natijalar berayotganini barchamiz koʻrib turibmiz. Oʻtgan sakkiz yilda yalpi ichki mahsulotimiz shiddat bilan oʻsib, 115 milliard dollarga yetdi. Bugun bitta raqamni birinchi marta aytmoqchiman: Xalqaro valyuta jamgʻarmasi prognoziga koʻra, bu yil iqtisodiyotimiz hajmi 130 milliard dollardan oshishi kutilmoqda. Yaʼni ilgari bunday oʻsish, bunday yuksak eʼtirof hech qachon boʻlmagan, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bunday natijalarga tadbirkorlik keng qoʻllab-quvvatlanayotgani, zamonaviy sanoat majmualari barpo etilayotgani, “yashil” va innovatsion iqtisodiyotga oʻtilib, muqobil energiya manbalari yaratilayotgani, axborot texnologiyalari, turizm va moliyaviy texnologiyalar kabi xizmat koʻrsatish tarmoqlari rivojlantirilayotgani zamin boʻlmoqda.

Yurtimizda zamonaviy shaharlar qad koʻtarmoqda, qishloq va mahallalar obod boʻlmoqda. Oʻtgan sakkiz yilda aholi uchun 500 mingga yaqin kvartirali koʻp qavatli uy-joylar barpo etildi. Bu mustaqillikning dastlabki 25-yilidagiga nisbatan toʻrt karra koʻp. Mahalla iqtisodiyotini

yaxshilash, qishloqlarni, yoʻllarni obod qilish uchun 60 trillion soʻm mablagʻ sarflandi. Yoki 130 milliard dollar xorijiy sarmoya kirib keldi, 100 mingdan ortiq investitsiya loyihalari ishga tushirildi, 7 milliondan ziyod aholi daromadli boʻldi.

— Bunday ulkan tarixiy yutuqlarimiz — oʻz vaqtida chuqur oʻylab olib borgan keng koʻlamli islohotlarimiz, eng muhimi, odamlarimizning tafakkuri, dunyoqarashi oʻzgargani samarasi, desak, ayni haqiqatni aytgan boʻlamiz. Qurayotgan binolarimiz, zamonaviy majmualar, qulay uy-joylar, maktab va bogʻchalar, tibbiyot, madaniyat va sport maskanlari, masolida Yangi Oʻzbekistonning iqtisodiy qudrati va ulkan bunyodkorlik salohiyati yaqqol namoyon boʻlmoqda. Asosiysi, qaysi sohada boʻlmasin, har bir yutuq va natija, avvalo, inson qadrini ulugʻlash, uning huquq va manfaatlarini taʼminlashga xizmat qilmoqda, — dedi davlatimiz rahbari.

Soʻnggi sakkiz yilda ijtimoiy infratuzilmaga oldingi yillardagiga nisbatan olti karra koʻp mablagʻ yoʻnaltirildi. Natijada bogʻcha oʻrinlari 720 mingdan 2,5 millionga yetkazildi. 466 ta yangi maktab qurilib, 1 million oʻquvchi oʻrni yaratildi. Talabalar soni 279 mingdan 1,5 million nafarga oshirilib, oliy taʼlimda qamrov 42 foizga olib chiqildi.

Oʻtgan haftada Tadbirkorlar kuni munosabati bilan 168 nafar eng ilgʻor biznes vakillari, mirishkor dehqon va fermerlar davlatimizning yuksak

mukofotlari bilan taqdirlangani qayd etildi.

— Bunday fidoyi yurtdoshlarimiz, ularning tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash va ragʻbatlantirishdan charchamayman. Albatta, bu bejiz emas. Yaxshi bilasiz, oldinlari, asosan, xomashyo eksport qilar edik. Barcha tarmoqlarni transformatsiya qilganimiz hisobiga, sanoat hajmini 2017-yilgi 29 milliarddan 70 milliard dollarga yetkazdik. Agar vaqtida tadbirkorlik uchun qulay sharoitlar yaratib bermasak, bunday yutuqlarga erisha olarmidik? Yoʻq, albatta, — dedi davlatimiz rahbari.

Taʼkidlanganidek, bugun biznes vakillari iqtisodiyotimizning chinakam tayanchiga aylandi. Binagim qurilish sohasini oladigan boʻlsak, bu yoʻnalish oldin hech qachon hozirgidek jadal rivojlanmagan. Ilgari qurilishlar faqat davlat buyurtmasi asosida boʻlar edi. Bugun xususiy qurilish kompaniyalari soni 30 mingdan oshdi, qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi 6 milliard dollarga yaqinlashdi. Hozirgi kunda Oʻzbekiston tom maʼnoda ulkan qurilishlar maydoniga aylandi.

Birgina oʻtgan yilning oʻzida 21 milliard dollarlik qurilish ishlari amalga oshirildi. Bu 2017-yildagiga nisbatan uch karra koʻp.

Bunday ulkan oʻzgarishlarni qishloq xoʻjaligi, toʻqimachilik, elektrotexnika, mashinasozlik, farmatsevtika kabi yoʻnalishlarda ham koʻrish mumkin.

Mamlakatimizda faqat sanoat bilan cheklanib qolmasdan, xizmat koʻrsatish sohalarini rivojlantirishga

ham alohida ahamiyat berilayotgani taʼkidlandi.

— Avvallari 500 million dollarga yetmagan turizm eksporti hozir 3 milliard dollarlik marradan oshdi. Yetti-sakkiz yil oldin IT eksporti 1 milliard dollarga yetadi, desa, bunga kim ishonardi? Eng muhimi, barcha tarmoqlarga yangi ilm, zamonaviy texnologiyalar kirib keldi. Ularda yuz minglab ish oʻrinlari va yuqori malakali kadrlar armiyasi paydo boʻldi. Har bir sohada Yangi Oʻzbekistonning oʻz strategiyasi, tajriba maktabi shakllandi. Mamlakatimizning ana shunday yangi tarixi, yangi qiyofasini yaratishda butun xalqimiz qatori siz, azizlarning ham munosib hissangiz bor va buning uchun barchangiz chuqur minnatdorlik bildiraman, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezident joylarda davlat mukofotlarini qabul qilib olayotgan vatandoshlarimizni ham tabrikhladi.

Shundan soʻng mukofotlanganlarga faxriy unvon, orden va medallar tantanali ravishda topshirildi.

— Milliy istiqlolimizning eng buyuk maqsadi insonga eʼtibor, uning qadrini, mehnatini ulugʻlash, oliyanob xalqimizning izzat-hurmatini joyiga qoʻyishdan iborat. Buni ushbu daqiqalarda barchamiz yanada chuqur his etmoqdamiz. Oʻz mehnati bilan mana shunday qadr topish, el-yurt nazarida boʻlishdek buyuk baxt sizlarni hech qachon tark etmasin, — dedi Prezident.

Mukofotlanganlar yuksak eʼtibor uchun minnatdorlik bildirib, xalqimizga ezgu tilaklarini bayon etdi.

OʻZBEKISTON PREZIDENTI YAPONIYA TASHQI ISHLAR VAZIRINI QABUL QILDI

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda boʻlib turgan Yaponiya tashqi ishlar vaziri Takesi Ivaya boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Yaponiya Bosh vaziri Sigeru Isibaning samimiy salomi va Oʻzbekistonning Mustaqillik kuni munosabati bilan tabriklarini yetkazdi.

Uchrashuvda Oʻzbekiston — Yaponiya strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va koʻp qirrali hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Faol muloqotlar davom etayotgani va amaliy hamkorlik jadal rivojlanib borayotgani alohida mamlakat bilan qayd etildi. Bugun oʻtkazilgan ikki mamlakat tashqi ishlar vazirlarining Strategik muloqoti birinchi yigʻilishining samarali natijalari yuksak baholandi.

Tovar ayirboshlash hajmi ortmoqda, Yaponiyaning yetakchi kompaniyalari ishtirokida yirik investitsiya loyihalari amalga

oshirilmoqda. 17-avgust kuni Osaka shahrida Butunjahon “EXPO 2025” koʻrgazmasi doirasida boʻlib oʻtgan Oʻzbekiston Milliy kuni muvaffaqiyatli oʻtkazildi.

Siyosiy muloqotni chuqurlashtirish, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, moliyaviy-texnik va madaniy-gumanitar hamkorlikning aniq loyihalarini ilgari surishga alohida eʼtibor qaratildi.

Oʻzbekiston — Yaponiya markazi faoliyatini kengaytirish va kelgusida uning negizida Yaponiyaning yetakchi universitetlari ishtirokida qoʻshma universitet tashkil etish rejalari qoʻllab-quvvatlandi.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar, shu jumladan, “Markaziy Osiyo + Yaponiya” formatidagi boʻlajak sammitni oʻtkazish yuzasidan ham fikr almashildi.

INSONPARVARLIKNING YUKSAK NAMUNASI

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev eng aziz umummilliy bayramimiz — Vatanimiz mustaqilligi eʼlon qilinganining oʻttiz toʻrt yilligini nishonlash arafasida davlatimiz tomonidan olib borilayotgan gumanistik siyosatning amaliy tasdigʻi sifatida “Jazo muddatini oʻtayotgan, qilmishiga chin koʻngildan pushaymon boʻlgan va tuzalish yoʻliga qatʼiy oʻtgan bir guruh shaxslarni avf etish toʻgʻrisida”gi Farmonni imzoladi.

Farmonga muvofiq, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 23-bandiga asosan jazo muddatini oʻtayotgan hamda qilmishiga chin koʻngildan pushaymon boʻlgan va tuzalish yoʻliga qatʼiy oʻtgan 523 nafar shaxs avf etildi.

Avf etilgan shaxslarning 195 nafari asosiy jazodan toʻliq ozod etildi, 147 nafari jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi, 87 nafarining ozodlikdan mahrum etish jazosi yengilroq jazo bilan almashtirildi. Shuningdek, 94 nafar shaxsga tayinlangan ozodlikdan mahrum etish jazosining muddatlari qisqartirildi.

Afv etilganlarning 8 nafarini chet el fuqarolari, 45 nafarini ayol, 31 nafarini 60 yoshdan oshgan erkak, 220 nafarini yoshlar (shulardan 1 nafari voyaga yetmagan) hamda 15 nafarini taqiqlangan tashkilotlar faoliyatida qatnashgan shaxslar tashkil etadi.

Farmon ijrosi yuzasidan avf etilgan shaxslar oilasi va yaqinlari bagʻriga qaytarish, ijtimoiy hayotga murosashib, foydali mehnat bilan shugʻullanishlari, sogʻlom turmush tarzini yoʻlga qoʻyib, jamiyatda munosib oʻrin topishlari uchun ularga koʻmak berish boʻyicha masʼul vazirlik va idoralarga tegishli topshiriqlar berildi.

OʻZA.

Senat qo'mitasida



BARQAROR ELEKTR ENERGIYASI — FAROVONLIK GAROVI

Oliy Majlis Senati Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasining majlisida Energetika vazirligining iste'molchilarni uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlari tahlildan o'tkazildi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda mamlakatimizda aholi xonadonlari, ishlab chiqarish korxonalari hamda ijtimoiy soha obyektlarini elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash borasida izchil ishlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda elektr ta'minoti tarmoqlarini modernizatsiya qilish, yangi quvvatlarni foydalanishga topshirish va iste'molchilarga elektr energiyasini uzluksiz yetkazib berish tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Statistik raqamlarga ko'ra, 2024-yilda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 2016-yildagiga nisbatan 22,5 mlrd. kVt-soat yoki 38 foizdan ko'pni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yili bu ko'rsatkich 2016-yildagiga nisbatan 21,8 mlrd. kVt-soat yoki 48 foiz ko'paygan.

Shu bilan birga, 2025-yilda past kuchlanishli 4 530 km. uzunlikdagi elektr uzatish tarmoqlari va 1 756 ta transformator punkti yangilash rejalashtirilgan edi.

O'tgan davr mobaynida 5 829 km. uzunlikdagi tarmoq va 1 854 ta transformator punkti yangilangan.

Bugungi kunda mamlakatimizda 220 — 500 kV

91 ta kichik stansiya va 12,5 ming km. elektr uzatish tarmog'idan samarali foydalanilmoqda.

Shuningdek, 35 — 110 kV 1 851 ta kichik stansiya va 278,5 ming km. tarmoq hamda 97,9 mingta transformator punkti orqali iste'molchilarga elektr energiyasi yetkazib beriladi.

O'tgan 2021 — 2024-yillarda elektr tarmoqlarini rivojlantirish doirasida quvvati 110 — 500 kV bo'lgan 1 310 km.lik elektr uzatish tarmoqlari qurilib, yuqori kuchlanishli kichik stansiyalarning quvvati 9 348 MVAg oshirildi. Shuningdek, 38 051 km.lik elektr uzatish tarmoqlari va 11 914 ta transformator punkti yangilanishi natijasida 8 mingdan ortiq mahallalarning elektr ta'minoti yaxshilanishiga erishilgan.

Muhokama davomida senatorlar ikki bosqichli tizimga o'tish, tejamkor uskuna va quyosh panellari o'rnatish hamda sohani raqamlashtirish borasidagi ishlarga ham alohida e'tibor qaratdi.

Majlis so'ngida qo'mitaning sohani takomillashtirishga qaratilgan tegishli qarori qabul qilindi.

FUQAROLAR MUROJAATLARI KO'RIB CHIQILDI

Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi o'rinbosari Sayyora Abdikarimova o'zlarining har xil yo'nalishlarga taalluqli muammolari bilan kelgan fuqarolarni qabul qildi.

Senator va hayot

murojaatlar to'liq va xolisona o'rganildi. Ayrim masalalar joyida hal etilgan bo'lsa, qolganlari bo'yicha qonuniy yechim topish maqsadida tegishli tartibda choralar ko'ridi.

Murojaatlarning asosiy qismi moddiy ta'minot, uy-joy, bandlik, tibbiy yordam ko'rsatish, tergov jarayoni hamda odil sudlovga oid masalalarga taalluqlidir.

Mamlakatimizning turli hududlaridan bo'lgan 30 ga yaqin fuqarolar bildirgan

“Xalq so'zi”.

OTAMNI YIG'LATGAN XUSHXABAR

Vatanimiz mustaqillikka erishgan kun — qutlug' ayyom tobora yaqinlashmoqda. Yurtimiz tarixida va xalqimiz taqdirida muhim burilish yasanagan mazkur sanaga 34-yil to'lmog'da. Albatta, inson hayoti uchun bu yillar hisobi ancha uzoq bo'lib tuyulishi mumkin, ammo tarix uchun bu nihoyatda qisqa. Shu ma'noda aytak, 34-yil bitta davlat rivoji va taraqqiyoti uchun ham juda qisqa davr hisoblanadi. Lekin mamlakatimiz ana shu yillar ichida juda ulkan marallarni zabt etdi, desak, mubolag'a emas.

Mustaqillikning 34 yilligiga

Ayniqsa, so'nggi 7-8-yil ichida jamiyatimizning barcha jabhasida boshlangan tub islohotlar tufayli O'zbekiston dunyo davlatlari sahnida o'zining munosib o'rniga, obro'siga, e'tirofiga ega bo'ldi.

O'ta tezkorlik bilan rivojlanayotgan iqtisodiyotimiz, sanoatimiz, agrar soha, eksport salohiyatimiz juda ko'p mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar e'tiborini o'ziga tortmoqda. Bugungi kunda ko'plab davlatlar, jahon miqyosidagi nufuzli tashkilotlar O'zbekiston bilan hamkorlikka intilyapti. Ayniqsa, fan, ta'lim, ilm, innovatsiya sohalaridagi islohotlarimiz o'nlab mamlakatlar uchun namuna bo'layotir. Yurtimizda olib borilayotgan ochiqchilik siyosati tufayli davlatlararo hamjamihtlik, o'stona munosabatlarni shakllantirish borasida ham dunyo bo'yicha yuksak e'tiroflarga sazovor bo'lmoqdamiz. Bunday ulkan yutuqlarga ko'plab misollar keltirish mumkin. Binobarin, erishgan yutuqlarimiz bilan qancha maqtansak, qancha mag'rurlansak arziydi. Bu tuyg'uni, ayniqsa, mustaqilligimizning ilk yillariga guvoh bo'lgan va o'sha zamondagi ahvolni bugungi farovon hayot bilan taqqoslash imkoniyatiga ega har bir vatandoshimiz ich-ichidan, yuragidan his qiladi.

Zero, Istiqloq quyoshi taratgan baxt-u

saodat, avvalo, yurtdoshlarimiz hayoti, taqdirida o'zining nurafshon nurlari bilan aks etadi. Xususan, kamina ham “Men uchun Vatan mustaqilligi nima, bu voqelik mening qalbimda qanday xotiralarni uyg'otadi?” degan savolga qalbm shukuhga to'lib javob beraman va uni uchta voqea bilan ifodalayman.

Esimda, davlatimiz mustaqilligi dadam karavotga mixlanib, og'ir xastalikka chalingan, oilamiz uchun qiyin kunlarning birida e'lon qilingandi. O'shanda ota uyimga kelganimda, dadam xona to'rida oq choyshabga o'ralib horg'in yotar, ammo kayfiyati a'lo edi. Odatda, og'ir dardga chalingan bemorning yuzidagi bunday shodonlikni har doim ham ko'ravermaysiz. Dadamning xursandligi sababini esa “Xushxabarni eshitdingmi, qizim? O'zbekiston mustaqil bo'libdi. Xudoyimga shukr, shu kunlarni ko'rdik” degan so'zlaridan so'ng angladim. Padari buzrukovrimning og'ir xastalikdan kirtaygan ko'zlarida yosh qalqdi...

Hayratlanarlisi, urush yillarida 15 yoshida po'lat quyish sexlarida eng og'ir ishlarni bajarganda, urushdan keyingi ocharchilik, qahatchilik kunlarini boshidan kechirganida, to'qqiz bolani ulg'aytirish uchun yarim joni bilan bir umr zavodlarda eng qiyin ishlarni ado etganda yig'lamagan otam, shu kuni, ya'ni O'zbekiston o'z mustaqilligini

e'lon qilgan kun yig'lardir...

I k d i n c h i v o q e a n i k i m h i k o y a q i l i b b e r g a n i y o d i m d a y o'q, l e k i n t a f s i l o t i e s i m d a. “B i r k u n i b o z o r g a c h i q q a n e d i m, — d e b g a p b o s h l a d i o' s h a n d a s u h b a t d o s h i m. — U p a y t l a r d a b o z o r l a r h a m d a b o s h q a j a m o a t j o y l a r i d a g i s i m y o g' o c h l a r g a, u s t u n l a r v a b i n o l a r p e s h t o q i g a o' m a t i l g a n r a d i o k a m a y l a r d a n q o' s h i q l a r y a n g r a b t u r a d i. N o g a h o n f o r s i y t i l d a s h u q a d a r m u n g l i, s h u q a d a r t a' s i r l i, y u r a k l a r n i l a r z a g a s o l a d i g a n, j u d a t a' s i r l i q o' s h i q n i e s h i t i b q o l d i m. T u r g a n j o y i m d a n q i m i r l a m a y, a j o y i b t a r o n a n i o x i r g i g a c h a t i n g l a d i m. S o' z l a r n i t u s h u n m a s a m- d a, q o' s h i q i j r o s i v a o h a n g i d a n t a' s i r l a n i b, o' z- o' z i d a n k o' z i m d a y o s h p a y d o b o' l d i. Q o' s h i q t u g a g a n d a n s o' n g q a r a s a m, a t r o f i m o d a m l a r b i l a n t o' l g a n, u l a r n i n g h a m k o' z l a r i y o s h l a n g a n e k a n. K i m d a n d i r “B u k i m n i n g q o' s h i g' i, u n i k i m a y t g a n?” d e b s o' r a d i m. “A h m a d Z o i r, V a t a n h a q i d a q o' s h i q” — d e d i u.

Yuqoridagi hikoyani tinglagach ana shu qo'shiqni topib eshitdim. Mening ham yuragim hapriqib, beixtiyor ko'zlarimdan yosh quyila boshladi. Ancha vaqtgacha shu qo'shiq ta'sirida yurdim. Keyinchalik meni bir savol qinyan boshladi: Vatanimiz haqida nega shunday qo'shiqlar yo'q, nega biz jonajon O'zbekistonimiz haqida aytilgan qo'shiqlarni sel bo'lib, yurakdan, ko'zimizda yosh bilan tinglamaymiz... Oradan ko'p yillar o'tib, Mustaqillik ayyomi munosabati bilan o'tkazilgan bayram tantanasida nihoyat men ana shunday qo'shiqni eshitdim. Bu

“Ulug'imsan, Vatanim” qo'shig'i edi. “Sen shoxlari osmonlarga tegib turgan chinorim, Ota desam, qizim, deya bosh egib turgan Vatan...”

Ana shunday yuraklarda yurtga bo'lgan mehr-muhabbatimizni yanada jo'sh urdiradigan ushbu mashhur taronani har eshitganimda beixtiyor ko'zlarimga yosh keladi. Va bu faxr-iftixor, shukronalik yoshlaridir.

Uchinchi aytadiganim shuki, mustaqillikning dastlabki yillarida yurtimizdagi ulkan ishlab chiqarish korxonalarining taqdiri haqida “Endi bu korxonalar to'xtab qoladi. Ularni ishlatishga mahalliy mutaxassislarning uquvi yetmaydi” degan “bashorat”larni ham ko'p eshitgan edik. Ammo aslo unday bo'lmadi. Xususan, bunga Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasining bir zum ham to'xtamay faoliyat yuritib kelayotganini misol sifatida keltirish mumkin. Eng quvonarlisi, ana shu “uquvsiz” deb baholangan mutaxassislarni hamda ularning farzandlari bugungi kunda sohaning noyob, malakali energetiklari sifatida xorijda xizmat safarlarida bo'lib, xuddi shunday korxonalardagi chet ellik kasbdoshlariga ham saboq berayotir.

Bular mening Vatan mustaqilligi bilan bog'liq aziz xotiralarni, tuyg'ularim, shukronalik ifodasi. Aslida ham, shu aziz Vatan farzandi bo'lgan, uning taraqqiyoti uchun bor bilimni, kuch-quvvatini, kerak bo'lsa, hayotini ayamaydigan har bir vatandoshimiz shunday ezgu tuyg'ularni ich-ichidan, yuragidan his qiladi, albatta.

Vatanimiz mustaqilligi barchamizga muborak bo'lsin, azizlar! Istiqlolimiz abadiy bo'lsin!

Pokiza AHMEDJONOVA,
Oliy Majlis Senati a'zosi, xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi raisi.

SAMARALI ODIL SUDLOVGA ERISHISH YO'LIDAGI MUHIM QADAM

Yaqinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmon imzolandi. Mazkur hujjat sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish samaradorligini ko'tarish, shuningdek, sudlarga bo'lgan ishonchni mustahkamlash borasida keyingi yillarda amalga oshirilayotgan tizimli islohotlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi.

Munosabat

Demokratik yo'ldan jadal rivojlanayotgan yangi O'zbekiston Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan insonning huquq va erkinliklari daxlsizligi hamda ulardan sud qarorisi mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emasligi belgilangan. Shuningdek, har kimning o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat berish huquqi kafolatlangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari va normalarini yangiga tatbiq qilish bo'yicha keyingi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzurida Odil sudlov akademiyasining tashkil etilishi sud tizimini zamonaviy va salohiyatli kadrlar bilan ta'minlashda yangi davrni boshlab berishi muqarrar. Shu jihatdan ushbu Farmon odil sudlov tizimining mazmun-mohiyatini tubdan o'zgartirishga qaratilgan ulkan ijtimoiy-siyosiy voqelik bo'ldi.

Albatta, dastlabki bosqichda O'zbekistonda sud hokimiyati mustaqilligini hamda odil sudlov sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish maqsadida tuzilgan bu kengash va uning huzuridagi oliy maktab jamiyatimizda odil sudlovni ta'minlashga qaratilgan katta yutuq bo'lgan edi. Ammo so'nggi yillarda

xalqimiz keng ko'lamli va chuqur islohotlar samarasi o'laroq barpo etilayotgan yangi O'zbekistonning o'ziga xos davlatchiligi mazmun-mohiyatini boyitadigan, tarixan katta ahamiyatga ega bo'lgan amaliy ishlarning guvohi bo'lib turibdi.

Sir emas, odil sudlovning ta'minlanishi sudyalor korpusi salohiyatiga va ularning mustaqilligiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Odil sudlov sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni qabul qilinishi hamda uning asosida O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzurida Odil sudlov akademiyasining tashkil etilishi sud tizimini zamonaviy va salohiyatli kadrlar bilan ta'minlashda yangi davrni boshlab berishi muqarrar. Shu jihatdan ushbu Farmon odil sudlov tizimining mazmun-mohiyatini tubdan o'zgartirishga qaratilgan ulkan ijtimoiy-siyosiy voqelik bo'ldi.

Albatta, dastlabki bosqichda O'zbekistonda sud hokimiyati mustaqilligini hamda odil sudlov sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish maqsadida tuzilgan bu kengash va uning huzuridagi oliy maktab jamiyatimizda odil sudlovni ta'minlashga qaratilgan katta yutuq bo'lgan edi. Ammo so'nggi yillarda



Prezidentimiz tashabbusi bilan sudlar faoliyatida odil sudlovni amalga oshirish bo'yicha qonuniyligni ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli ishlar uddalangan bo'lsa-da, zamon talablaridan kelib chiqib sudyalarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish zaruriyati vujudga keldi. Xususan, jahonda O'zbekiston manfaatlarini himoya qilishga qodir bo'lgan, xorijiy tillarni biladigan va xalqaro huquq normalarini yaxshi tushunadigan sudyalor korpusini shakllantirishga yangicha yondashuv hamda ilm-fan va raqamli texnologiyalar yutuqlarini joriy etish hayotiy zaruratga aylanib bormoqda.

Shuni alohida e'tirof etish lozimki, davlatimiz rahbarining yuqoridagi aytib o'tilgan Farmoni, avvalo, sud tizimida zamonaviy fikrlaydigan, halol va yuksak salohiyatli yangi avlod sudyalor korpusini shakllantirishga qaratilgan. Farmonda sudya kadrlarni tayyorlash tizimi negizida tom ma'noda odil sudlovning asosiy maqsadlari bo'lgan ijtimoiy adolat, qonun ustuvorligi va inson huquqlari kafolatini yanada yuqori darajaga ko'tarish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar belgilangan. Zero, sudyalarning chuqur bilim va ko'nikmalar hamda ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasiga ega bo'lishi bevosita ularning kasbiy salohiyatini oshiradi. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yanada yuksaltirishga

xizmat qiladi. Eng muhimi, yuqori kasbiy malakaga ega bo'lgan sudya odil sudlovni amalga oshirishda adolat, qonun va inson huquqlari ustuvorligi tamoyillarini ta'minlashda muhim omil bo'ladi.

Sudyalor oliy maktabi negizida Odil sudlov akademiyasining tashkil etilayotganligi sud tizimini salohiyatli kadrlar bilan ta'minlash borasidagi uzluksiz islohotlarning mantiqiy davomi bo'lib, Sudyalor oliy kengashiga sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlash va sudya kadrlarni tayyorlash borasida yanada katta mas'uliyat yuklaydi.

Ayrim xorijiy mamlakatlar amaliyotida sudya kadrlarni tayyorlashda hanuzgacha ijro hokimiyati yoki boshqa hokimiyat organlarining aralashuvi kuzatilayotgan bir paytda O'zbekistonda bu boradagi ishlar jahonning eng ilg'or tajribasi asosida yo'lga qo'yilganligi va bu amalda o'z samarasini berayotganligi davlatimiz rahbarining kuchli siyosiy irodasi mahsulidir.

Prezidentimizning yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan va keng jamoatchilik tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlangan tashabbuslari

Davlatimiz rahbarining bu kabi muhim Farmon va qarorlari konstitutsiyaviy islohotlar mevasi sifatida xalqimiz irodasi bilan hayotimizga tatbiq etilayotgan “shaxs — jamiyat — davlat” konstitutsiyaviy tamoyiliga asoslangan yangi model milliy qonunchilikka keng singdirilayotganidan dalolat beradi. Ayni paytda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosidagi “inson, uning huquqlari, erkinliklari, qadri — eng muhim qadriyat” degan qoidani sudlov tizimi faoliyatining negiziga joriy etish, yangi mazmundagi konstitutsiyaviy tuzumni sifat jihatdan yuqori bosqichga olib chiqadi, milliy davlatchiligimizni rivojlantirish va mustahkamlash yo'lida muhim qadam bo'ladi.

Mirzo-Ulug'bek ABDUSALOMOV,
O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyaviy sudining raisi,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist.

“SAMARQAND” BRENDI
XALQARO BOZORGA CHIQADI

Buning uchun imkoniyat ham,sharoit ham yetarli

Xabaringiz bor,yaqinda Prezidentimiz raisligida to'qimachilik sohasida eksport imkoniyatlari va xaziralarni ishga solish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tgandi.

Unda tadbirkorlar bilan muloqot jarayonida tannarx,ishlab chiqarish va eksport bo'yicha asosli takliflar berish,“bojxona hududida qayta ishlash” rejimi orqali tayyor mahsulot eksportini 2 barobarga oshirish,kooperatsiyani kuchaytirib,past quvvatda ishlayotgan korxonalarni sog'lomlashtirish choralarini ko'rish borasida fikrlashilgandi.

Dunyoga yo'l

To'qimachilikda “dolzarb yuz kunlik” e'lon qilindi.

Yig'ilishda aytilgan fikrlar, berilgan topshiriqlardan keyin shu sohada ish olib borayotgan tadbirkor sifatida bu borada Samarqand viloyatining imkoniyatlari bilan tanishib ko'rdim.

Hozirgi kunda viloyatda to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan 634 ta korxona faoliyat ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, 261 ming tonna paxta yetishtiriladi, shundan 47,2 ming tonna kalava ip, 36,2 mln. kvadrat metr gazlama, 15,5 ming tonna trikotaj mato, 80 mln. juft paypoq, 88,5 mln. dona tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda.

Tizimda 18 ming nafardan ko'proq odamlar ish bilan ta'minlangan.

Joriy yilning olti oyida 3,3 trln. so'm'lik mahsulotlar ishlab chiqarilgan. Shundan, 65 ta korxona tomonidan 70 mln. dollardan ortiq (o'tgan yildagiga nisbatan 105 foiz) tekstil mahsulotlari 31 ta davlatga, xususan, eng ko'pi Rossiyaga — 39,8 mln. dollarlik, Germaniya — 5,1 mln., Qirg'izistonga 4,4 mln. dollarlik va boshqa mamlakatlarga eksport qilingan.

Bunda 11 turdagi mahsulotlar chetga chiqarilgan bo'lib, ular — 22 mln. dollar miqdordagi tayyor kiyim-kechak, 20,7 mln. dollarlik kalava ip, 11 mln. dollarlik gilam va gilam mahsulotlari hamda 6 mln. dollarga teng tekstil mahsulotlarini tashkil qiladi.

Albatta, bu hali marra emas. Kelgusida ushbu yo'nalishda umumiy qiymati 113,7 mln. dollarlik 34 ta loyiha amalga oshirilib, 4 200 ta yangi ish o'rni yaratish rejalashtirilgan.

Viloyatda tekstil va to'qimachilik yo'nalishida barcha bosqichlar amalga oshirilgan, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki bugungi kunda paxta yetishtirishdan tortib tayyor mahsulotgacha ishlab chiqariyapti-da. Mahsulotlarimiz esa dunyo bo'yicha sotilmoqda. Shu faktlarning o'zi Samarqand to'qimachilik sohasining mavqeini ko'rsatib beradi.

Misol uchun, Samarqand tumanida joylashgan “Sam Rafoat Tekstil” mas'uliyati cheklangan jamiyati uy-tekstil mahsulotlarini “Parisa xom” brendi asosida Yaponiya, Yevropa va boshqa davlatlarning 4 va 5 yulduzli mehmonxonalariga yetkazib berishni yo'lga qo'ygan.

“Samarqand apparel” mas'uliyati cheklangan jamiyati “Ze Nors Feys” va “Engelbert Shtraus”

brendlariga mahsulot yetkazmoqda. Ushbu mahsulotlar Yevropa va Janubiy Koreyaga eksport qilinadi.

“Daka inteks” MCHJ tomonidan “Glori Jins”, “Promo tekstil”, “Sport master”, “Aprel”, “Ospin” brendlari ostida Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlariga 4,5 mln. dollarlik mahsulot jo'natildi.

“Zarafshon tekstil” tomonidan o'tgan davr mobaynida “Kik” brendi asosida Germaniyaning “Kik Tekstiliyen” kompaniyasiga 3 mln. dollarlik mahsulotlar yetkazildi. Shu bilan birga, “Odji”, “Fandey” brendlari ostida tekstil mahsulotlari tayyorlanib, Rossiyaga eksport qilinmoqda.

Bu yo'nalishda ishlash juda yaxshi tajriba bo'ldi, lekin endi biz o'z brendimizni yaratish ustida ishlashimiz kerak degan to'xtamga kelinmoqda. Chunki brendga tikib berayotgan mahsulotlarning eng ko'p foydasi brend egalariiga ketib qolmoqda.

Masalan, “Samarqandini tekstil” oilaviy korxonasi tomonidan “Samarqandini” brendi asosida erkaklar ko'ylaklari ishlab chiqarilib, ichki bozorga sotilmoqda. Hozirda ushbu korxona chet davlatlardagi boshqa brendlarga tikib bermoqda. O'zining brendini ro'yxatdan o'tkazib, to'g'ridan-to'g'ri “Samarqandini” brendi asosida xorijga jo'natilsa foyda ham, eksport ham karrasiga o'sadi. Hozirgi kunda Intellektual mulk departamenti bilan hamkorlikda ro'yxatdan o'tkazish ishlari olib borilmoqda.

Umuman, viloyatda shunga o'xshash 7 ta tekstil korxonasi o'z brendlarini jahon bozoriga olib chiqishga kirishgan.

Mahsulotlarimizni dunyo bozorlariga reklama qilishda xalqaro ko'rgazmalar muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan bunday tadbirlarda mahsulot joylashtirish uchun 9 kvadrat metr ajratilgan. Ushbu hajmni 50 kvadrat metrgacha kengaytirish va xarajatlarni qoplab berishni yo'lga qo'ysak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yig'ilishda xalqaro konsultantlar bilan birgalikda to'qimachilikni 2030-yilga qadar rivojlantirish dasturini ishlab chiqish topshirig'i berildi. Bunda charm, ipak va gilamchilik sanoati ravnaqi bo'yicha ham takliflarni kiritish vazifasi qo'yilgani ayni muddao bo'ldi.

Maryam NIYOZOVA,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

Mustaqilligimizning 34 yilligi munosabati bilan 30-31-avgust kunlari Toshkent shahri tumanlarida keng ko'lamli bayram sayillari va konsert dasturlari tashkil etiladi.

IJTIMOIY DAVLAT — INSONNI ULUG‘LAGAN DAVLAT

Tarixiy oʻzgarish nuqtasi

Xalqimiz murakkab va sinovlarga toʻla tarixi davomida turli davrlarni boshidan oʻtkazdi. Tinimsiz zahmat real hayotni oʻzgartirmadi, kundalik turmushdagi qiyinchiliklarni yengillashtirmadi. Oqibatda aksariyat oilalarning iqtisodiy holati ogʻirlashdi, davlat insondan, inson ham davlatdan uzoqlashib ketdi.

Xalqning kundalik hayoti, orzu-niyatlarini bilmaslik mamlakat iqtisodiyotini ham murakkab vaziyatga solib qoʻygan edi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshqaruv falsafasini tubdan oʻzgartirdi. Xalqimiz boy boʻlsa — davlat ham boy va qudratli boʻladi. Mana shu adolati tarixiy fikr siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, maʼnaviy-maʼrifiy, qoʻyingki, barcha sohada davlatni yangiladi.

Inson vosita emas, aksincha, uning yaxshi va farovon, tinch hayoti davlatning oliy maqsadi ekani alohida taʼkidlandi. Har bir inson oʻz turmushini yaxshilash, bolalariga qulay sharoit qilish, toʻzgʻoridan koʻngli toʻq yashash imkoniyatiga ega boʻlishi zarur. Oilalar barqaror boʻlmasdan, davlat va jamiyat barqaror boʻlishi mumkin emas. Bundan sakkiz yil avval mamlakatda ijtimoiy siyosat va iqtisodiy yondashuv shu tarzda yangilandi.

Xalqimizning haqli tanlovi

Mavhum va olis kelajak haqidagi oʻylardan toliqqan odamlarning, avvalo, oʻziga ishonchi susayib boradi. Intilganlar erishmagan, muhtojlar himoyalannagan, istaganlar ragʻbatlantirilmagan jamiyatda hafsala qolmaydi. Xalqimizga xos bunyodkorlik hafsalasini qayta uygʻotish uchun juda koʻp qiyinchiliklarni yengib oʻtishga toʻgʻri kelardi. Avvalo, davlat bundan keyin xalqimizga xizmat qilishiga, intilganini qoʻllab-quvvatlashiga millionlab odamlarni ishonitirish zarur edi.

Shuning uchun barcha katta-kichik rahbar va mutasaddilarga qayta-qayta uqtirildi: “Odamlar eritaga emas, olis kelajakda emas, bugun yaxshi yashashi kerak”. Bu — oddiy va adolati haqiqat. Mehnat qilgan oilaning biri ikki boʻlishi, farzandlar qanday sharoitda oʻsayotgan boʻlsin, taʼlimga, bilimga yeta olishi, nogironligi bor yoki bemor kishi himoyalinishi, ishsiz kishi yoʻl topishi uchun qoʻllab-quvvatlanishi vazifa etib qoʻyildi.

Davlat emas, inson, uning huquq va manfaatlari kafolati oliy maqsadga koʻtarila boshladi. Xalqimizda buni Konstitutsiyada mustahkamlab qoʻyishdek tabiiy istak paydo boʻldi. Chunki Bosh qomusimizga shu vaqtga qadar kiritilgan oʻzgartirishlar inson emas, asosan, davlat bilan bogʻliq boʻlgan edi. Barcha yangi meʼyorlar “inson — jamiyat — davlat” konsepsiyasiga rioya etgan holda ishlab chiqildi. Almada ham, qonunda ham davlatning oliy maqsadi insonni, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish boʻldi.

Prezident islohotlarining boshlanishida millionlab murojaatlarning tinglanishi, huquqiy, iqtisodiy, maʼmuriy resurslar orqali hal etilishi, uysizning vatani, ishsizning ishlari, kasbsizning hunarli, bemorning himoyali boʻlishi xalqimizning nafaqat ishonchini qaytardi, shu bilan birga, yangi marralar orzusini uygʻotdi. Biz doim shunday boʻlishini istaymiz, degan istakni kuchaytirdi.

Bu istak Yangi Oʻzbekiston — ijtimoiy davlat, degan gʻoyada birlashdi. Yaʼni inson davlat uchun emas, davlat inson uchun, degan tamoyil Bosh qomusimizda xalqimizning yuksak xohishi bilan mustahkamlandi. Partiyamiz deputatlari va faollari bilan mamlakatimizning barcha hududida oʻtkazilgan muloqotlarda bunga bevosita guvoh va amin boʻldik.

Har bir fuqaroning munosib turmush sifati va darajasiga erishishini taʼminlash, ijtimoiy tafovutlarni yumshatish va muhtojlarga yordam berish uchun moddiy boyliklarni adolat tamoyiliga muvofiq taqsimlashga qaratilgan davlat modeli — ijtimoiy davlat. Bu — Xalq demokratik partiya­si­ning siyosiy mafkurasi, maqsad-muddaosi bilan uygʻun taʼrif.

Jahonda “ijtimoiy davlat” mavqeiga ega mamlakatlar iqtisodiy jihatdan ham yuqori darajada rivojlangan, iqtisodiyoti ijtimoiy yoʻnatirilgan, fuqarolik jamiyati shakllangan, har bir shaxs oʻzini namoyon qilishi uchun teng sharoit yaratilgan, davlatning oʻz fuqarolari oldidagi ijtimoiy masʼuliyati kuchli boʻlgan jamiyatlardir.

Endi buni oʻzbekona qilib ayt­sak, ijtimoiy davlat bu insonni oʻylaydigan,



uning yaxshi turmushi uchun qaygʻuradigan, masʼuliyatni zimmasiga oladigan davlatdir.

Oʻz murakkab tarixida mavhum gʻoyalar bilan sarsonlik koʻrgan, davlat kim, uning maqsadi nima ekani haqida savollarga javob topolmagan xalqimiz davlatni tanib, anglab, u bilan birga harakat qilmoqda, unga talab va vazifalar ham qoʻymoqda. Shu maʼnoda, vaqti kelib bugungi davr davlatchiligimiz rivojlanishining eng muhim pallasi sifatida ham tadqiqotlarga asos boʻladi, deb ishonaman.

“ Prezident islohotlarining boshlanishida millionlab murojaatlarning tinglanishi, huquqiy, iqtisodiy, maʼmuriy resurslar orqali hal etilishi, uysizning vatani, ishsizning ishlari, kasbsizning hunarli, bemorning himoyali boʻlishi xalqimizning nafaqat ishonchini qaytardi, shu bilan birga, yangi marralar orzusini uygʻotdi. Biz doim shunday boʻlishini istaymiz, degan istakni kuchaytirdi. ”

Kambagʻallik, faollik, farovonlik

Kambagʻal, degan soʻzni ishlatishdan xijolat boʻlgan, hatto qoʻrqilgan zamonlar boʻldi. Kambagʻallikni tan olmaslik bilan u yoʻq boʻlib qolmaydi. Aksincha, kengayib, chuqurlashib boraveradi.

Tan olmaslik, davlatning oddiy odamlar hayotidan, kundalik turmushidan uzoqlashib ketgani, ayni paytda, yaqinlashishni istamayotganini ham anglatardi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning eng muhim haqiqiy yetakchilik fazilatlaridan biri muammoga tik qarash, qanchalik ogʻir boʻlmasin, odamlarga yaxshi boʻlishi uchun uni hal etishda shijoat koʻrsatishidir.

Yurtimizda kambagʻallik rasman tan olinishi va uni qisqartirish boʻyicha misli koʻrilmagan harakatlar olib borilishida, yildan-yilga qatʼiy vazifalar belgilanishida shunday noyob fazilatni, qanday holatda boʻlishidan qatʼi nazar, har bir yurtdoshimizga boʻlgan mehri koʻr­yapmiz.

Oddiy va achchiq savol: kambagʻal odam yoki oila qanday yuzaga keladi?

Agar bu savolga ishyoqmaslik, bekorchilikdan, deb javob berilsa, kamida adolatdan boʻlmaydi. Chunki ekspertlar va asosiysi, hayot xulosasiga koʻra, kambagʻallikning, oilalar oʻzlari chiqib keta olmaydigan holatga tushib qolishining davlat va jamiyat bilan bogʻliq sabablari oz emas.

Hamma narsa tuzumniki boʻlgan, odamlarga yoppasiga shunchaki mehnatkashlar sifatida yondashilgan, ularning ehtiyojlariga vaqtida eʼtibor qaratilmagan davrlar kambagʻallikni koʻpaytirdi.

Keyingi yillarda kambagʻallikning asosiy sabablarini bartaraf etish boʻyicha strategik vazifalar belgilab berildi, ijrosi boʻyicha natijasi hayotda koʻrinadigan taʼsirchan mexanizm joriy qilindi, jarayon izchil davom etayпти.

Kambagʻal oila, asosan, sharoit, qoʻllab-quvvatlov, ragʻbat, imkoniyat berilmasligi sabablaridan paydo boʻladi. Aytaylik, daromadi haminqadar oilaning taʼlim olmagan, hunar egallamagan farzandlari kelajakda yana kambagʻal oilalarni koʻpaytirishi ehtimoli yuqori. Shu sababli, kambagʻallikni qisqartirishga kompleks yondashuv yaratildi.

Avval kim nima uchun kambagʻalligini bilmagan boʻlsak, hozir qaysi oila qanday yordam bilan sharoitini yaxshilashi mumkinligi haqida tahlil oʻtkazib, keyin qoʻllab-quvvatlash boʻyicha talablar qoʻyildi.

Kezi kelganda, bir masalani eslab oʻtsak. Xalq demokratik partiyasi 30 yillik siyosiy faoliyati davomida kambagʻallik masalasi bilan bevosita bogʻliq boʻlgan “isteʼmol savatchasi” haqidagi masalani koʻtarib, biron-bir natijaga erisha olmagan edi. Prezident tashabbusi bilan oʻz vaqtda qabul qilingan minimal isteʼmol xarajatlari haqidagi hujjat orqali qariyb

2 millionga yaqin oilalarning nafaqalari miqdori deyarli 2 barobarga oshirildi.

2020-yilda joriy qilingan tizim natijasida uzoq yillar ogʻir vaziyatda boʻlgan millionlab odamlarning sharoitlari yaxshilandi, kambagʻallik darajasi qisqarib bormoqda.

Albatta, bu borada raqamlar muhim, ammo eng asosiy oʻzgarish, eng asosiy islohot odamlar dunyoqarashida, oilalardagi muhitda koʻrinyapti, desak, toʻgʻri boʻladi. Har bir inson hayoti yaxshi boʻlishi uchun bugun intilishi, oʻzi va yaqinlari uchun imkoniyatlardan foydalanishi zarurligini anglab yetmoqda.

Hozir kambagʻallikni aniqlash mezonlari va manzilli roʻyxati shakllantirilmogʻda. Unga “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”dagi hamda kambagʻallikka tushish xavfi yuqori boʻlganlar kiritilmogʻda. Bunday oilalar “mahalla yettilligi” va faollari tomonidan ovoz berish yoʻli bilan tashdiqlanadi. Kambagʻallikdan chiqarishga qaratilgan barcha ijtimoiy xizmat va yordamlar “Inson” ijtimoiy

Mushohada

katta va yaxlit tizim sifatida tashkil etildi. Yaqinda parlamentda Oʻzbekiston Respublikasining “Ijtimoiy ish toʻgʻrisida”gi Qonuni qabul qilinishi sohaning huquqiy asosini yanada mustahkamladi.

Ijtimoiy xizmat va yordamni mahalla darajasida tashkil etish vazifasi qoʻyildi. Kim yordamga muhtoj boʻlsa, uning murojaatini kutib oʻtirmasdan, xonadoniga borib qoʻllab-quvvatlash choralari koʻrilmogʻda.

Nogironligi boʻlgan shaxslarga ishlash va kasb-hunarga oʻqishda toʻsiqsiz muhit yaratish uchun ularning “mehnatga layoqatini belgilash” amaliyotidan voz kechildi. Nogironlik kasallikka qarab emas, balki shaxsning mustaqil harakati, muloqot qobiliyati va ijtimoiy hayotdagi ishtirokiga qarab belgilanishi ayni muddao boʻldi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini aniqlash tartibi va ular bilan ishlash tizimi oʻzgardi. Eng muhimi, muhtojlarning har biri boʻyicha individual ijtimoiy xizmatlar dasturi yoʻlga qoʻyilmogʻda.

“Mahalla yettilligi”ning qaysi vakili kirishidan qatʼi nazar, oiladagi muammo va imkoniyatlar aniqlanib, “ijtimoiy portret”ni yaratmoqda. Yordamdan soʻng xonadonda nima oʻzgargani monitoring qilinadigan boʻldi.

Nogironligi boʻlgan shaxslarga protez vositalarini berish, nafaqa va qarovsiz qolgan bolalarga vasiylikni rasmiylashtirish, oʻzgalar parvarishiga muhtoj keksalarni yolgʻiz, deb eʼtirof etish kabi 49 ta ijtimoiy xizmat quyiga tushirilishi mahalladagi ijtimoiy xodimlarga katta masʼuliyat va javobgarlik yukladi.

Ehtiyojmand oilalar manzilli oʻrganilsa hamda mahalla aholisi xabardor boʻladigan shaffof tizim yaratilsa, har bir ijtimoiy xizmatga individual yondashilsa, monitoringi olib borilsa, albatta, yordam haqiqiy muhtojlarga yetib boradi.

Dolzarb

siyosiy vazifalar

Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak, degan konseptual qoida, qatʼiy prinsip keyingi yillarda davlatimizni tubdan yangiladi. Oldimizda hali juda muhim vazifalar ham turibdi. Qonunlar, belgilangan topshiriqlar insonlari taʼminlab, odamlarni rozi qilish uchun ijro organlarining xalqimiz oldidagi masʼuliyatini yanada kuchaytirish barchamizdan oʻzimizga nisbatan talabchanlikni oshirishni taqozo etmoqda.

Xalq demokratik partiya­si parlamentdagi muxolifat fraksiya­ning taʼsirchan faoliyatiga masʼul partiya

“ Yaqinda parlamentda Oʻzbekiston Respublikasining “Ijtimoiy ish toʻgʻrisida”gi Qonuni qabul qilinishi sohaning huquqiy asosini yanada mustahkamladi. Ijtimoiy xizmat va yordamni mahalla darajasida tashkil etish vazifasi qoʻyildi. Kim yordamga muhtoj boʻlsa, uning murojaatini kutib oʻtirmasdan, xonadoniga borib qoʻllab-quvvatlash choralari koʻrilmogʻda. ”

Inson himoyasi

Jamiyatda soha va tarmoqlar bir-biriga uygʻun tarzda rivojlangandagina muvaffaqiyatlar mustahkam boʻladi. Bitta sohadagi yutuqlar boshqalarga ham kuch beradi, ayni paytda, bitta tarmoqdagi muammolar boshqa yoʻnalishdagi islohotlarga ham taʼsir koʻrsatmasdan qolmaydi. Yaʼni hech bir davlat bir tomonlama rivojlan olmaydi. Oʻsish, yuksalish har jihatdan uygʻun boʻlishi muhim. Shu maʼnoda, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami jamiyat hayotidan uzoqlashishi yoki chet­lashishiga yoʻl qoʻyib boʻlmaydi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda ijtimoiy himoya tushunchasiga yondashuv ana shu nuqtayi nazar­dan butunlay oʻzgarayotganining guvohi boʻli­yapmiz. Insonning ijtimoiy holati, jamiyatda tutgan oʻrnidan qatʼi nazar, avvalo, uning qonuniy haq-huquqlarini taʼminlashga eʼtibor qaratilmogʻda.

Partiyamiz elektorati vakillari bilan muloqotlar, murojaatlarni tahlil qilish asnosida ijtimoiy himoya masalalari bilan yagona yondashuv asosida shugʻullanadigan yaxlit davlat organi yoʻqligi masalasiga eʼtibor qaratgan, ammo uzoq yillar muammo muammoligicha qolib kelayotgan edi. Prezident bu masalaga oqilona yechim topib, Ijtimoiy himoya milliy agentligi

sifatida ijtimoiy davlat funksiyalari

toʻliq bajarilishi uchun parlament va deputatlik nazoratini kuchaytirishga intilmogʻda.

Yangi Oʻzbekiston fikrlar, qarashlar va pozitsiyalar xilmaxilligi asosida faqatgina inson himoyasi, xalqimiz farovonligini koʻzlab rivojlanadigan mamlakat boʻlib qaddini tik tutayotgani Mustaqillik bayrami hukmron ayni kunlarda barchamizni shukronalik hissi bilan chulgʻaydi.

Odamlarga vositadek munosabatda boʻlib kelingan makondan inson farovonligi oliy maqsad boʻlgan mamlakatga, oʻziga ishongan xalqqa aylanayotganimiz bugunning real haqiqati.

“Men oʻz xalqimni yaxshi koʻraman, hurmat qilaman, sevaman. Shuning uchun ham shu xalq manfaati uchun ishlayapman. Oʻzbek xalqi ham boy boʻlsin, bardavom iqtisodiga ega boʻlsin”.

Davlat rahbarining bu soʻzlari bir haqiqatni bot-bot esga soladi: ona xalqini chin sevganlargina buyuk ishlarga qodir boʻladi.

Ulugʻbek INOYATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi Oʻzbekiston XDP fraksiyasi rahbari.



OʻZBEKISTON VA IORDANIYA:

OʻZARO ALOQALARNING YANGI BOSQICHI

lordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi Abdulla II ibn al-Husayn 25-26-avgust kunlari davlat tashrifi bilan mamlakatimizda boʻldi. Ikki davlat rahbarlari oʻrtasida boʻlib oʻtgan uchrashuv va kelishuvlar Oʻzbekiston va lordaniyaning tashqi siyosatida, xalqaro aloqalarni rivojlantirishda muhim oʻrin egalladi.

Aks sado

lordaniya arab dunyosida mintaqaviy barqarorlikning ustuni sifatida muhim rol oʻynaydi, ushbu davlat dunyoda nizolarni tinch yoʻl bilan hal qilish tarafdori boʻlib kelmoqda. Bu nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasida, balki dunyoda doimiy tarzda tinchlik va barqarorlikni ilgari surayotgan Oʻzbekiston bilan solishtirganda, ikki davlat tashqi siyosat tamoyillarining uygʻunligidan dalolat beradi.

lordaniya keyingi yillarda oʻz tashqi iqtisodiy aloqalarini diversifikatsiya qilmoqda, shunga mos holda oʻz iqtisodiyotida transformatsiya jarayonlarini oʻtkazmoqda. Uning iqtisodiyoti ishlab chiqarish, ayniqsa, farmatsevtika, tikuvchilik va oʻgʻitlarni ishlab chiqarish, togʻ-kon sanoati (fosfatlar, kaliy), turizm hamda rivojlanayotgan axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sektori kabi bir qancha asosiy tarmoqlarga tayanadi. Ushbu tarmoqlar uning iqtisodiyoti uchun juda muhim boʻlib, konchilik va ishlab chiqarish yalpi ichki mahsulot va bandlikning katta hissasini tashkil qilmoqda.

Mamlakatimizda ham “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida ushbu tarmoqlarga alohida eʼtibor qaratilib, ular jadal surʼatlar bilan rivojlanayapti.

Shu bois uchrashuv davomida kimyo, toʻqimachilik sanoati, geologiya, sogʻliqni saqlash, farmatsevtika, turizm va boshqa tarmoqlarda kooperatsiyani kengaytirishga kelishib olindi.

Ushbu sohadagi hamkorlik mazkur tarmoqlarni bir-birini toʻldirish, eksportga oid mavjud salohiyatni toʻlaqonli ishlatish, mutaxassislar orasida tajriba almashishda katta imkoniyatlarni ochmoqda.

lordaniya bilan bizni oʻxshash diniy qadriyatlar ham bogʻlamogʻda. Uning bagʻrikeng va maʼrifatli islom gʻoyalarni ilgari surishi bir-birimizning hamkorligimizni yaqinlashtirmogʻda. Ushbu davlat boy tarixga ega, unda koʻplab dunyoga tanilgan madaniy meros obyektlari mavjud. Odamlari esa bilimga, taʼlimga juda chanoqqdir.

Bular hammasi ikki davlat oʻrtasidagi siyosiy, madaniy-gumanitar almashinuvni yanada rivojlantirish, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

lordaniya birinchilardan Oʻzbekistonning mustaqilligini tan oldi va oʻz elchixonasini ochdi. Biroq faqat oxirgi yillarga kelib ikkala davlat oʻrtasida siyosiy muloqot, iqtisodiy hamkorlikning tizimli yondashuvi oʻz oʻrnini topishni boshladi.

lordaniya Podshohligi Podshohining mamlakatimizga tashrifi va boʻlib oʻtgan uchrashuv ikki davlat oʻrtasidagi birinchi oliy darajadagi tadbir boʻldi. Uchrashuvda ikki tomonlama keng sohalarni qamrab oluvchi 15 ta hujjat

imzolangani mazkur davlatlar orasida hamkorlikni chuqurlashtirishga talab kattaligidan dalolat beradi.

Taʼkidlash kerakki, sohalar boʻyicha kelishuvlardan tashqari ushbu kelishuvlarni amalga oshirish boʻyicha amaliyotda sinalgan mexanizmlar ularning yigʻilishlarini oʻtkazish taklifi bildirildi. Shuningdek, ikki mamlakatning yetakchi kompaniya va ishlab chiqaruvchilari ishtirokida Oʻzbekiston — lordaniya biznes forumini oʻtkazish boʻyicha kelishib olindi.

Jumladan, Hukumatlararo komissiya va Ishbilarmonlar kengashini ishga tushirish hamda joriy yil yakunigacha ularning yigʻilishlarini oʻtkazish taklifi bildirildi. Shuningdek, ikki mamlakatning yetakchi kompaniya va ishlab chiqaruvchilari ishtirokida Oʻzbekiston — lordaniya biznes forumini oʻtkazish boʻyicha kelishib olindi.

Bunday shakldagi institutsional platformalar hozirgacha boshqa davlatlar bilan aloqalarni kengaytirishda, savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishda oʻz samarasini koʻrsatdi. Shu munosabat bilan mazkur platformalardan samarali foydalanish yuqori darajadagi kelishuvlarning sifati va oʻz vaqtida bajarilishiga, tez fursatda ijro etish jarayonida paydo boʻladigan toʻsiqlarni bilishga va ularning yechimini topishga xizmat qiladi.

Davlat tashrifi doirasida Prezidentimiz lordaniyaning “An-Nahda” ordeni bilan taqdirlandi. Oliy mukofotni davlatimiz rahbariga lordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi Abdulla II ibn al-Husayn shaxsan topshirdi.

lordaniyaning eng nufuzli mukofoti davlatimiz rahbariga berilishi ikki mamlakat oʻrtasida yuqori darajadagi ishonch aloqalari oʻrnatilishi hamda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oʻzbekiston va lordaniya oʻrtasidagi hamkorligi rivojlanishiga, uni yuqori bosqichga, yaʼni koʻp qirrali amaliy darajaga olib chiqishga qoʻshgan ulkan hissasining tan olinishidan dalolat beradi. Oʻz navbatida, ushbu yuksak mukofotning berilishini Oʻzbekistondagi demokratik islohotlar, mamlakatimizda xalqning hayotini yaxshilashga qaratilgan tub oʻzgarishlarning eʼtirofi sifatida ham baholashimiz kerak.

Shu bilan birga, hozirgi ziddiyatli davrda xalqaro maydonda davlatimiz rahbari boshchiligidan olib borilayotgan Oʻzbekistonning tinchlikparvar va insonparvar siyosati, xalqaro savdo-iqtisodiy zanjirlar uzilib ketilayotgan vaziyatda jahon va mintaq darajasida iqtisodiy barqarorlikni taʼminlash, Prezidentimizning ushbu zanjirlarni qanday qilib boʻlsa ham tiklashga qaratilgan saʼy-harakatlarini lordaniya yuksak baholayotganini koʻrsatmoqda.

Albatta, ushbu uchrashuv biz, deputatlarga ham katta masʼuliyat yuklaydi. Ikki davlat oʻrtasidagi aloqalarni yanada kengaytirish, yuqori darajadagi kelishuvlarning ijrosi boʻyicha samarali parlament nazoratini oʻrnatish, lordaniya parlamenti aʼzolari bilan parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish boʻyicha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi faol boʻlishi talab etiladi.

Ulugʻbek SHERMATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qoʻmitasi raisi.

MADANIY HAMKORLIKNING
AMALIY IFODALARI

Bugun madaniy merosimizni o'rganish, xorijiy mamlakatlarda saqlanayotgan O'zbekistonga oid merosni tadqiq etish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada qator me'yoriy hujjatlar ham qabul qilingan. Ayni paytda olimlar va mutaxassislarimiz xorijiy mamlakatlardagi muzey hamda kutubxonalar, shaxsiy kolleksiyalarda saqlanayotgan nodir durdonalarni izlab topmoqda.

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi delegatsiyasi tarkibida shu yilning 11 — 13-avgust kunlari Eron Islom Respublikasida bo'lib qaytdik. Safar davomida turli uchrashuvlar, muloqotlar bo'lib o'tdi, samarali kelishuvlarga erishildi.

Taassurot

Eron kutubxonasida
O'zbekiston xonasi

Eron Milliy kutubxonasi mamlakatning yirik madaniy markazlaridan biri. 1935-yildan beri faoliyat ko'rsatib kelayotgan ushbu ziyo maskanida 10 milliondan ortiq qo'lyozmalar, tarixiy va zamonaviy kitoblar, arxiv hujjatlari, gazeta va jurnallar saqlanadi.

Eron Milliy arxivi va kutubxonasi rahbari G'ulomrizo Amirxoniy o'tgan yili avgust oyida "Buyuk ajdodlar merosi — uchinchi Renessans asosi" mavzuida Samarqand shahrida o'tkazilgan xalqaro kongressda ishtirok etarkan, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi uchun alohida xona ajratilishini bildirgan edi. Safar asnosida Eron Milliy kutubxonasida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi xonasining ochilish marosimi ham o'tkazildi.

G'ulomrizo Amirxoniy O'zbekiston bilan munosabatlardan kundan-kunga yuqori bosqichga chiqayotganini yuksak baholab, "Ikki davlat rahbarlarining do'stona munosabatlari samarasi o'laroq kutubxonamizda O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi xonasi ochilgani ham asriy do'stligimizning yaqqol timsolidir", deya ta'kidladi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshirig'i asosida nashr etilgan "Katta Langar" Qur'onining faksimil nusxasi Eron milliy arxivi va kutubxonasiga topshirildi.

Buyuklardan qolgan
bebaho meros

Tadbir ishtirokchilari Eron Milliy kutubxonasida tashkil qilingan O'zbekiston madaniy merosiga oid qo'lyozmalar ko'rgazmasi bilan ham tanishdi.

Hazrat Navoiyning
qutlug' qadami

Mamlakatning O'zbekiston tarixiga aloqador shaharlaridan yana biri — Mashhaddir. Shahar xorazmshohlar, temuriylar, shayboniylar va boshqa o'zbek sulolalari uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan. 1418-yilda Mashhadda Shohrux Mirzo hukmronligi davrida Gavharshodbegimning shaxsiy mablag'larini hisobidan yirik jome masjidi bunyod etilgan.

Gavharshodbegim (1378 — 1457) temuriylar tarixida katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan ayollardan biri, Amir Temurning oqila kelin, Shohrux Mirzoning suyuqli rafiqasi edi. U Xurosonda juda

orasida "Nodirshohning oltin ayvoni" deb nom oladi.

Safar davomida ushbu tarixiy obidalar, Ostoni Quds kutubxonasidagi O'zbekistonga oid qo'lyozmalar va hujjatlar bilan yaqindan tanishdik. Kutubxonada Alisher Navoiy merosiga oid o'nlab qo'lyozmalar, temuriylar davrida ko'chirilgan Qur'on qo'lyozmalari, betakror miniatyuralar saqlanadi. Bizga bu yerda Xiva xoni Abulg'ozixon V imzolagan farmonning asl nusxasini ham ko'rsatishdi.

— Joriy yilning may oyida Toshkentda, xususan, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida bo'lib,



ko'p bunyodkorlik ishlariga bosh-qosh bo'lgan. Gavharshodbegim masjidi nafaqat ushbu mamlakat, balki islom olamining eng go'zal obidalaridan biri sanaladi. Imom Rizo majmuasi tarkibidan o'rin olgan bu masjidda olti asrdan beri musulmonlar uzluksiz tarzda o'z ibodatlarini ado etib keladi.

Bundan tashqari, Imom Rizo majmuasidagi Inqilob maydoni hududida buyuk mutafakkir Alisher Navoiy tomonidan maxsus ayvon qurilgan.

Ma'lumki, Alisher Navoiy bu shaharda ma'lum madaddi yashagan, tahsil olgan. Keyinchalik Mashhadda qator qurilish va obodonchilik ishlarini amalga oshirgan. Hazrat Navoiy ko'rsatmasiga binoan, Imom Rizo maqbarasining qarshisida ziyoratchilar uchun alohida ayvon qurdirilgan. Ammo oradan vaqt o'tishi bilan majmua tarkibidagi ayvon, xonaqoh va maqbaralarga jiddiy shikast yetgan. Afsharlar hukmdori Nodirshoh 1734-yilda Alisher Navoiy tomonidan qurilgan ushbu ayvonni ta'mirlatib, uning yuzasini oltin qoplamalar bilan ziynatlaydi. Shundan so'ng bu ayvon xalq

uning faoliyati bilan yaqindan tanishdik. Bu markazning bunyod etilishi Prezident Shavkat Mirziyoyevning tarixiy merosini o'rganish va asrab-avaylashga qaratayotgan ulkan e'tibori natijasidir. Biz ushbu markaz bilan yaqin hamkorlik qilishdan bunihoja xursandmiz, — dedi Ostoni Quds kutubxonalar, muzeylar va arxivlar boshqarmasi boshlig'i Sayyid Jalol Husayniy biz bilan uchrashuvda.

Tadbirda kelgusida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi bilan memorandum imzolash, qo'lyozmalarining elektron va faksimil nusxalarini ayirboshlash masalalari muhokama qilindi. O'zbekiston delegatsiyasiga XV asrda temuriyzoada hukmdor Ibrohim Sulton tomonidan ko'chirilgan Qur'oni karim qo'lyozmasi topshirildi.

Tengsiz hikmat va
cheksiz tafakkur go'shasi

Eron — buyuk tarix, ma'naviy kamolot, nodir obidalar diyori. Yo'l-yo'lakay Tus shahrida buyuk shoir Abulqosim Firdavsiy maqbarasi ziyorati ham esda qolarli bo'ldi.

Firdavsiy — Sharq adabiyotining

buyuk siymosi, "Shohnoma" dostonining muallifi sifatida jahonga tanilgan. Uning hayoti va ijodi Eron xalqining tarixi, madaniyati va milliy o'zligi bilan chambarchas bog'liq. Firdavsiyning bebaho merosiga bo'lgan hurmat uning vafotidan keyin ham asrlar davomida saqlanib qolgan. Ushbu e'tiborning yorqin namunasi sifatida Firdavsiy maqbarasini keltirish mumkin.

Firdavsiy maqbarasi Eronning Xurosoni Razaviy viloyatidagi Tus shahrida joylashgan. Maqbaraning atrofi go'zal bog' bilan o'ralgan. Bog'da turli gullar, daraxtlar, marmar yo'laklar va hovuzlar mavjud. Bu yerda sayyohlar va ziyoratchilar dam olishlari, Firdavsiy ruhiga hurmat bajo keltirishlari mumkin. Maqbaraning yonida Firdavsiy muzeyi ham joylashgan. Muzeysida "Shohnoma"ning qo'lyozma nusxalari, shoir hayotiga oid hujjatlar va tarixiy eksponatlar namoyish etiladi.

Maqbara hududida o'tkazilgan anjumanda "Shohnoma"dan parchalar o'qildi, ilmiy mulohazalar bildirildi. "Shohnoma" va o'zbek adabiyoti, turkiy hukmdorlarning bu ulug' shoirga munosabati xususida ham suhbatlashdik. Zotan, temuriyzoada hukmdorlar "Shohnoma"ni qayta-qayta ko'chirtirishgan, rassomlarimiz ushbu shoh asarga bag'ishlab o'nlab sara miniatyuralar yaratgan. Alisher Navoiy singari shoirlarimiz o'z asarlarida Firdavsiyning buyuk dahosi va fasohatini ta'rif-u tavsif qilgan.

Maqbaradan uzoq bo'lmagan yerda Horuniya xonaqohi joy olgan. Garchi bu obida nomi abbosiylar xalifasi Horun ar-Rashidga nisbat berilsa-da, u XV asr boshlarida Shohrux Mirzo hukmronligi paytida qurilgan. Majmua tarkibida madrasa ham bo'lib, u saljuqiylar davriga oid Nizomiya madrasasi o'rnida qad rostlagan. Madrasa va xonaqoh asrlar davomida Tus shahridagi ma'rifat va ma'naviyat dargohlaridan bo'lib kelmoqda.

Albatta, Eronning turli shaharlarida mushtarak tariximizning hali biz bilmagan yana qancha-qancha sir-sinoatlari yashirin. Ammo bu sinoatlarni anglash, his qilish uchun ularni qayta ko'rish, batafsil o'rganish, zavq olish zarur. Shu bois yana kelish orzusida bu qadim diyordan Vatanga qaytdik...

Rustam JABBOROV
("Xalq so'zi").

REKLAMA

“Elektron realtor” MCHJ

to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar o'tkazish yo'li bilan tashkillashtiriladigan ko'chmas mulklar va ularga bo'lgan huquqlar bo'yicha o'tkaziladigan savdoga taklif etadi



“O'zsanoatqurilishbank” ATB bilan tuzilgan 2025-yil 18-iyundagi №18-2025ER sonli shartnomaga asosan “O'zsanoatqurilishbank” ATB balansida bo'lgan mulk O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-apreldagi PQ-142-qaroriga asosan sotuvga chiqarilmoqda:

Buxoro viloyati, Buxoro shahar, “Bixishtiyon” MFY. I. Karimov ko'chasi 1/1-uyda joylashgan, Blok-A yerto'la “Alora” savdo do'koni — boshlang'ich bahosi: 7 650 mln. so'm.

Yuqoridagi ko'rsatilgan mulk yillik 14 foiz ustama bilan boshlang'ich to'lovi 20

foizdan kam bo'lmagan holda 5-yilga bo'lib to'lash sharti asosida sotuvga chiqarilmoqda.

Savdoga qo'yilgan mulk bilan bevosita joyiga chiqib tanishish mumkin.

Savdoda ishtirok etish uchun talabgorlar “e-rieltor.uz” platformasi orqali ariza berishlari mumkin.

Call-markaz: +99855-517-22-20. Rasmiy saytimiz: www.e-rieltor.uz

Bunyodkorlik

TALABALAR UCHUN
MUNOSIB TUHFA

Samarqand davlat universiteti intellektual tizimlar va kompyuter texnologiyalari fakultetining yangi o'quv binosi foydalanishga topshirildi.

Shu munosabat bilan universitetda tashkil etilgan tadbirida markaziy studiya orqali mamlakatimizning yigirmaga yaqin oliy ta'lim muassasalarida yangi

qurilgan o'quv binolari va talabalar turarjoylarining ochilishiga Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'iro'tboy Sharipov, Samarqand davlat universiteti rektori, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, Oliy Majlis Senati a'zosi Rustam Xolmurodov start berdi.

— Bugun davlatimiz mustaqilligining 34-yilligi arafasida talabalarimiz uchun munosib tuhfa tayyorlanganini katta mamnuniyat bilan e'lon qilmoqchiman, — dedi Qo'ng'iro'tboy Sharipov. — Ya'ni respublikamizdagi 18 oliy ta'lim muassasasida 9 ming 980 o'rinni yangi

talabalar turarjoylari hamda ming o'rinni o'quv binosi to'liq qurib bitkazildi, farzandlarimiz uchun foydalanishga topshirildi.

Rustam Xolmurodov o'z so'zida bugun intellektual tizimlar va kompyuter texnologiyalari fakulteti uchun qurilgan, ming o'rinni o'quv binosi timsolida farzandlarimiz orzulari, baxt-u iqboli va ertangi kuni mujassamlashganini ta'kidladi.

Yangi binolar foydalanishga topshirilgandan so'ng Samarqand davlat universitetining intellektual tizimlar va kompyuter texnologiyalari fakulteti ko'zdan kechirildi. Zamonaviy sharoitlarga ega mazkur bino tadbir ishtirokchilarida katta taassurot qoldirdi.

“Xalq so'zi”.

HARBIY XIZMATCHILARGA
YANGI UYLAR

Yurtimizda eng ulug', eng aziz bayram shukuhi kezayotgan shu kunlarda Farg'ona shahridagi Abdulla Qodiriy mavzesida harbiy xizmatchilar uchun barpo etilgan 8 qavatli uy foydalanishga topshirildi.

Tantanali tadbirda ta'kidlanganidek, keyingi yillarda Qurolli Kuchlarimizni isloh qilish, harbiy xizmatchilar oilalarining ijtimoiy himoyasini ta'minlash borasida izchil say-harakatlar olib borilmoqda. Ezgu tashabbuslar ijobati yo'lida xizmat uyarlari, yangi uy-joylar qurilib, dastlabki to'lovlar imtiyozli tarzda davlat tomonidan qoplab berilayotgani fikrimizning yorqin dalilidir.

Ayni jarayonda 2020-yildan buyon Farg'ona viloyatida 540 nafar harbiy xizmatchi va ularning oila a'zolariga namunaviy uy-joylar topshirildi. Bugun esa yana 50 ta harbiy oila o'z xonadonlariga ega bo'ldi.

— Oilamiz bilan yangi uyga ko'chib o'tdik, — deydi mayor Azizbek Madaminov. — Yangi uyli bo'lish tuyg'usi odamni behad ruhlantirib yuborar ekan. Bunday e'tibor va rag'batdan juda ham minnatdormiz.

Oila bekasi Nargiza Madaminova o'qituvchi. Uning aytishicha, bu yangilik o'zi va farzandlari uchun unutilmas xursandchilik bo'ldi.

— Bizning davrimizda bu kabi qulayliklar yo'q edi, — deydi iste'fodagi podpolkovnik Vohidjon Toshaliyev. — Bugungi sharoitlar, imtiyoz va imkoniyatlarga havas qilsa arziydi. Ayniqsa, harbiy xizmatchiga uy topshirilishi uning ko'nglini xotirjam qiladi va mas'uliyatini yanada oshiradi.

Tadbir davomida ramziy tasma qirgilib, yig'ilganlar zamonaviy ko'rinishga ega shinalar xonadonlarda yashovchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlarni ko'zdan kechirishdi. Nuroniylar duoga qo'ri o'chib, elga tinchlik va xotirjamlik, oilalarga baxt-u saodat so'rab tilak bildirdi.

Botir MADIYOROV
("Xalq so'zi").

QAYIRMA ANORI

Chust tumanidagi Qayirma mahallasi aholisining asosiy qismi anorchilik bilan shug'ullanadi. Ob-havoning haroratli kelishi bilan bu yil mevaning ertapishar navi barvaqt shira bog'ladi. Ayni paytda ko'pchilik tomorqa egalari hosil yig'imiga kirishgan.

Omilkorlik

— Bir gektar anorzor xonadonimizning asosiy baraka manbaiga aylangan, — deydi usta bog'bon Ilyosjon Mansurov. — Yetishtirayotgan mevamiz donasi yirikligi va sharbatining totilligi bilan xaridorigir. Bultur 15 tonna hosildan 150 million so'm daromad olgandik. Bu galgi mavsum yanada barakali — 20 tonnalik xirmon ko'tarishni chamalab turibmiz. Shu



kunlarda hosilning yetilgan qismi peshma-pesh terilib, omborga joylanmoqda. Yurtimizda yetishtirilayotgan har mevaning suygan bog'i bor. Qayirma mahallasidagi mingdan ziyod xonadon sohiblarining 700 dan ortig'i anorchilikni oilaviy biznesga aylantirgani ularga to'kinchilik

va yuqori daromad olib kirmoqda. Har bir xonadondan yiliga o'rtacha 100 million so'mlik atrofidagi hosil bozorga yetkazib berilyapti. Bu esa mahallaga ayni tarmoqning o'zidan milliardlab mablag' kirib boryapti, degani.

Quadratilla NAJMIDDINOV
("Xalq so'zi").

Gimnastikaga ixtisoslashtirilgan sport maktabiga talab va takliflardan kelib chiqib,
7 — 11 yoshdagi o'quvchi-sportchilarni 1 — 4-sinflarga o'qishga qabul qilishga ruxsat etiladi.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 642, 13 107 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taqob. O'fset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ommaviy rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahriyrga kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Nashriyot muharriri S. Mamirov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 00.45 Topshirildi — 01.10

1 2 3 4 5 6